



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 09 | pp. 276-282 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARIDA AHOLIGA KO'RSATILAYOTGAN KASSA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH



Umarova Lola Erkinovna

TDIU, Bank ishi kafedrası o'qituvchisi

e-mail: lolaumarova84@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada tijorat banklarida aholiga ko'rsatilayotgan kassa xizmatlari tizimi, uning hozirgi holati va samaradorligini oshirish masalalari tahlil qilinadi. Bank kassa xizmatlarining ahamiyati, naqd pul tushumlari va chiqimlari dinamikasi, shuningdek, so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va elektron to'lov tizimlarining kassa xizmatlariga ta'siri ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, naqd pul aylanmasining kengayishi va xizmatlar sohasining faollashuvi bank tizimining likvidligini mustahkamlash, mijozlarga xizmat sifatini oshirish va pul muomalasini nazorat qilish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: kassa, kassa xizmatlari, tijorat banklari, naqd pul aylanmasi, likvidlik, bank xizmatlari, pul, xizmat sifatini oshirish.

Annotation: The article analyzes the cash service system provided to the population by commercial banks, its current state, and ways to improve its efficiency. The importance of bank cash services, the dynamics of cash inflows and outflows, as well as the impact of digital technologies and electronic payment systems on cash services in recent years, are examined. The research results indicate that the expansion of cash circulation and increased activity in service areas strengthen the bank system's liquidity, enhance customer service quality, and provide the ability to control money circulation.

Keywords: cash, cash services, commercial banks, cash circulation, liquidity, banking services, money, service quality improvement

KIRISH

Hozirgi davrda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar natijasida bank tizimi milliy iqtisodiyotning asosiy moliyaviy vositachisiga aylanib bormoqda. Tijorat banklari faoliyatida aholiga xizmat ko'rsatish, xususan, kassa operatsiyalarini samarali tashkil etish va ularni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish masalalari bank ishining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aholiga ko'rsatilayotgan kassa xizmatlari tijorat banklarining asosiy amaliyot turlaridan biri bo'lib, bankning likvidligini boshqarish, naqd pul aylanmasini tashkil etish va aholi mablag'larini bank tizimi orqali iqtisodiy aylanmaga jalb etishda muhim o'rin tutadi. Bu xizmatlar orqali aholi pul mablag'lari rasmiy bank tizimida saqlanib, pul aylanmasi ustidan nazoratni ta'minlash, "soya iqtisodiyoti"ni qisqartirish hamda milliy valyuta barqarorligini mustahkamlash imkoni yaratiladi.

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning bank sohasiga joriy etilishi kassa xizmatlarining mohiyati va shakllarini tubdan o'zgartirmoqda. Elektron to'lovlar, mobil va onlayn xizmatlarning rivojlanishiga qaramasdan, aholining ma'lum qismi uchun naqd pul operatsiyalari asosiy amaliyot turi bo'lib qolmoqda. Shu bois, bank ishi nuqtai nazaridan kassa xizmatlarini zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etish va ularning samaradorligini oshirish bank tizimining barqaror faoliyat yuritishi uchun muhim omil hisoblanadi.

Kassa xizmatlarining sifat darajasi aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi, depozit faolligi va bank resurs bazasining kengayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ilmiy nuqtai nazardan, bu xizmatlar tizimini tahlil qilish va takomillashtirish orqali bankning likvidlik siyosati, pul aylanmasi tizimi, xavfsizlik standartlari hamda xizmat ko'rsatish madaniyatini baholash mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan amalga oshirilayotgan "moliyaviy inklyuziyani kengaytirish", "naqd pul aylanmasini optimallashtirish" va "bank xizmatlarini raqamlashtirish" siyosati doirasida tijorat banklarining aholiga ko'rsatayotgan kassa xizmatlari tizimini takomillashtirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu esa mazkur yo'nalishdagi ilmiy izlanishlarni amalga oshirishning ham nazariy, ham amaliy jihatdan dolzarbligini yanada oshiradi.

Shuning uchun ham tijorat banklarida aholiga ko'rsatilayotgan kassa xizmatlarining hozirgi holatini tahlil qilish, ularning samaradorligini oshirish va zamonaviy bank amaliyoti talablariga mos takliflar ishlab chiqish masalasi bank ishi sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklarda kassa tushunchasi asosan naqd pul va boshqa qimmatliklar bilan ishlovchi bo'linmani anglatadi. Ilmiy-moliyaviy talqinga ko'ra, kassa operatsiyalari jismoniy va yuridik shaxslardan naqd pullarni (banknot va tangalarni) qabul qilish va ularga berish bilan bog'liq amaliyotlar majmuasidir.

Tijorat banklari tuzilmasida kassaning alohida vazifalari va tarkibiy qismlari mavjud. Bankning kassa tarmog'i odatda quyidagi elementlardan iborat bo'ladi: kirim kassa (mijozlardan naqd pul qabul qiluvchi kassa), chiqim kassa (naqd pul beruvchi kassa), qayta sanash kassasi (inkassatsiya yo'li bilan keltirilgan yoki kundalik tushumlarni qayta hisoblaydigan bo'lim), kechki kassa (ish kuni tugagandan keyin kechki inkasso qabul qiluvchi bo'lim) hamda pul ombori (bankning naqd pul va boshqa qiymatliklarni saqlaydigan seyfi).

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko'ra (Yo'riqnoma, 2018) kassa operatsiyalari — kassa hujjatlari asosida naqd pul va boshqa qimmatliklarni kirim yoki chiqim qilish, qayta sanash, saralash, o'rab-bog'lash, almashtirib berish hamda inkassatorlardan qabul qilib olish yoki ularga tashish uchun topshirish hisoblanadi. Bu ta'rif kassa faoliyatining tartibga solinganligini, har bir operatsiya rasmiy hujjat orqali amalga oshirilishi shartligini ko'rsatadi. Banklar uchun bu xizmatlar aholi ishonchini saqlashda muhim ahamiyatga ega: tezkorlik, xavfsizlik, qulaylik. Shu sababli, yo'riqnomada belgilangan tartiblardan kelib chiqqan holda, kassa xizmatlarini takomillashtirish masalasi dolzarbdir.

Xar bir tijorat bankida aholi, korxona va tashkilotlarga kassa xizmatini ko'rsatish uchun bir qancha kassalar tashkil etiladi, ya'ni bank muassasasi o'z tarkibida tarkibiy bo'linma-kassa operatsiyalari bo'limiga ega (Umarov, 2021). Bankdagi kassa bo'limi nafaqat naqd pul va qimmatliklarni qabul qilish va chiqarish bilan shug'ullanadi, balki mijozlarga xizmatni tezkor, qulay va xavfsiz tarzda ta'minlash, hamda moliyaviy va hisob-kitob jarayonlarini nazorat qilish vazifalarini ham bajaradi.

Xorijiy adabiyotlarda ham kassa tushunchasiga o'xshash ta'riflar uchraydi. Masalan, Frederic S. Mishkin va Stanley G. Eakins (2021) o'zlarining Financial Markets and Institutions asarida kassani bankning naqd pul likvidligini ta'minlovchi asosiy operatsion nuqta deb ta'riflaydi. Ularning fikricha, kassa faqat naqd pul berish va qabul qilish bilan cheklanmay, balki bankning umumiy likvidlik siyosatini ham bevosita qo'llab-quvvatlaydi.

Bank for International Settlements (Iorio, 2022) metodologiyasida esa kassa faoliyati naqd pul oqimlarini boshqarish jarayonining birinchi bo'g'ini sifatida ko'rsatiladi, bunda xavfsizlik, tezkorlik va aniqlik uchta asosiy mezon sifatida belgilangan.

Yuqoridagi ta'riflardan ko'rinadiki, mahalliy va xorijiy manbalarda kassa tushunchasi o'zaro uyg'un mazmunga ega bo'lsa-da, mahalliy manbalarda ko'proq operatsion va tashkiliy jihatlar, xorijiy manbalarda esa likvidlikni boshqarish va xavfsizlik standartlariga urg'u beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklarida kassa operatsiyalari bir nechta asosiy yo'nalishga bo'linadi. Ularga avvalo naqd pullarni qabul qilish (kirim) va naqd pullarni berish (chiqim) operatsiyalari kiradi – bu bank kassasining kundalik faoliyatidagi eng tipik amaliyotlardir. Shuningdek, kassa bo'limi tomonidan naqd pulni qayta sanash va saralash (kun davomida yoki kun yakunida tushgan pullarni takroran hisoblash, sortlash), kupyuralarni o'rab-bog'lash (yirik pullarni bog'lamlarga tayyorlash), mayda pulni yirik pulga yoki aksincha almashtirib berish (mijozlar so'roviga ko'ra) ham kassa operatsiyalariga kiradi.

Tijorat banklarida aholi uchun quyidagi xizmat turlari amalga oshiriladi: omonatlarni qabul qilish va qaytarish, shu jumladan foiz to'lash bilan; kommunal to'lovlar, soliq va bir martalik to'lovlarni qabul qilish; valyuta ayirboshlash operatsiyalari; binodan tashqari kassa xizmatlari orqali xizmatlarni joylashtirish.

Kassalarda barcha operatsiyalar rasmiy hujjatlar asosida bajarilishi shart. Bu kassa jurnallari, hisob-kitob varaqalari va mijozning shaxsini tasdiqlovchi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

1-jadval

Naqd pul tushumlari hajmi va tarkibi dinamikasi

№	Ko'rsatkichlar	2023 yil		2024 yil		O'zgarishi	
		trln. so'm	ulushi , % da	trln. so'm	ulushi , % da	trln. so'm	ulushi , % da
1	Tovarlarni sotishdan tushum	157,1	19,2	178,9	18,0	21,8	-1,2
2	Pullik xizmatlardan tushum	42,4	5,2	58,8	5,9	16,4	0,7
3	Bank xizmatlari bo'yicha tushum	138,6	16,9	171,8	17,3	33,2	0,4

4	Soliqlar va boshqa majburiy yig'imlar	66,0	8,1	81,0	8,2	15,0	0,1
5	Boshqa tushumlar	413,9	50,6	500,8	50,5	86,9	-0,1
6	Jami naqd pul tushumi	818,0	100,0	991,3	100,0	173,3	0,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Yillik hisoboti 2024 asosida muallif tomonidan tuzildi

2023–2024 yillar mobaynida naqd pul tushumlari hajmi va tarkibida barqaror ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, jami naqd pul tushumi 2023 yildagi 818,0 trln so'mdan 2024 yilda 991,3 trln so'mgacha oshgan bo'lib, bu 173,3 trln so'm yoki taxminan 21,2 foiz o'sishni anglatadi. Bunday o'sish mamlakat iqtisodiyotidagi faollikning ortishi va pul aylanmasining kengayishidan dalolat beradi.

Naqd pul tushumlari tarkibini tahlil etganda, "Boshqa tushumlar" asosiy ulushni tashkil etganligi aniqlandi. Ushbu ko'rsatkichning hajmi 413,9 trln so'mdan 500,8 trln so'mgacha oshgan bo'lib, 86,9 trln so'm yoki 21,0 foiz o'sishni ko'rsatadi. Biroq uning umumiy ulushi 50,6% dan 50,5% gacha oz miqdorda kamaygan. Bu holat iqtisodiyotdagi boshqa daromad manbalarining nisbatan tez sur'atlarda o'sganini anglatadi.

"Tovarlarni sotishdan tushum" ko'rsatkichi 157,1 trln so'mdan 178,9 trln so'mgacha oshib, 21,8 trln so'm yoki 13,9 foiz o'sishni namoyon etgan bo'lsa-da, uning umumiy ulushi 19,2% dan 18,0% gacha kamaygan. Bu esa tovar aylanmasi o'sish sur'atining iqtisodiyotning boshqa segmentlariga nisbatan sust kechayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, "Pullik xizmatlardan tushum" ko'rsatkichi eng yuqori o'sish dinamikasini namoyon etdi — 2023 yildagi 42,4 trln so'mdan 58,8 trln so'mgacha, ya'ni 38,7 foizga o'sgan. Uning umumiy ulushi ham 5,2% dan 5,9% gacha oshgan. Bu holat xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi ulushi ortib, aholi va biznes sub'ektlarining xizmatlar iste'moli faollashganini anglatadi.

"Bank xizmatlari bo'yicha tushumlar" 138,6 trln so'mdan 171,8 trln so'mgacha o'sib, mutlaq hajmda 33,2 trln so'm, ulush bo'yicha esa 0,4 p.p. ga o'sishni ko'rsatgan. Bu moliyaviy sektorning kengayishi, bank tizimidagi xizmat turlarining diversifikatsiyasi hamda naqd pul aylanmasi oshganidan dalolat beradi.

Soliqlar va boshqa majburiy yig'imlar bo'yicha tushum ham 66,0 trln so'mdan 81,0 trln so'mgacha, ya'ni 22,7 foizga ko'paygan. Bu esa davlat byudjetiga tushumlarning barqaror o'sishini va soliq ma'muriyati samaradorligining ortib borayotganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari 2024 yilda naqd pul tushumlari hajmidagi o'sishning iqtisodiyotdagi umumiy ijobiy tendentsiyalar — xususan, xizmatlar sohasi, bank tizimi va davlat moliyalari barqaror rivojlanib borayotganidan dalolat berishini ko'rsatadi. Tovar aylanmasi ulushining nisbatan kamayishi esa iqtisodiyot tuzilmasida xizmatlar va moliyaviy operatsiyalar hissasining ortib borayotganini, ya'ni iqtisodiy tuzilmaning diversifikatsiyalanish jarayoni kechayotganini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, naqd pul tushumlari dinamikasi mamlakat iqtisodiyotidagi makroiqtisodiy barqarorlik, pul aylanmasining o'sishi va xizmatlar sektorining faollashuvi bilan uzviy bog'liq holda shakllanmoqda.

2-jadval

Naqd pullarning berilishi bo'yicha yo'nalishlari

№	Ko'rsatkichlar	2023 yil		2024 yil		O'zgarishi	
		trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da	trln. so'm	ulushi, % da
1	Pensiya, nafaqa va stipendiya to'lovlariga	22,1	5,3	17,8	3,5	-4,3	-1,8
2	Korxona va tashkilotlarning ish xaqi to'lovlariga	33,8	8,1	37,2	7,3	3,4	-0,8
3	Naqd chet el valyutasini sotib olish uchun	92,7	22,2	119,8	23,5	27,1	1,3
4	Bank kartalaridan naqd pul echishga	189,1	45,3	225,8	44,3	36,7	-1,0
5	Omonatlarni naqd pulda qaytarish	35,5	8,5	47,4	9,3	11,9	0,8
6	Boshqa naqd puldagi to'lovlarga	44,2	10,6	61,7	12,1	17,4	1,5
7	Jami naqd pul chiqimi	417,4	100	509,6	100	92,2	0,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Yillik hisoboti 2024 asosida muallif tomonidan tuzildi

2023–2024 yillar davomida naqd pul chiqimlari hajmi va tuzilishida muayyan o'zgarishlar kuzatilgan. Jami naqd pul chiqimi 2023 yildagi 417,4 trln so'mdan 2024 yilda 509,6 trln so'mgacha oshib, 92,2 trln so'm yoki taxminan 22,1 foiz o'sgan. Bu iqtisodiyotdagi pul aylanmasi hajmining kengayganini va aholining naqd pul operatsiyalariga bo'lgan ehtiyoji ortib borayotganini ko'rsatadi.

Tuzilmaviy jihatdan tahlil etilganda, eng katta ulush "Bank kartalaridan naqd pul echish" yo'nalishiga to'g'ri kelmoqda. 2024 yilda ushbu ko'rsatkich 225,8 trln so'mni tashkil etgan bo'lib, umumiy chiqimdagi ulushi 44,3% ni tashkil etdi. Ushbu yo'nalish bo'yicha ulush 1,0 foiz punktga kamaygan bo'lsa-da, mutlaq hajmda 36,7 trln so'mga o'sgan. Bu aholi va biznes sub'ektlari tomonidan elektron to'lov tizimlari orqali mablag'larni naqdlashtirish jarayonlari hali ham yuqori darajada ekanligini ko'rsatadi.

"Naqd chet el valyutasini sotib olish uchun chiqimlar" ham 2024 yilda sezilarli darajada oshgan. Ushbu ko'rsatkich 92,7 trln so'mdan 119,8 trln so'mgacha, ya'ni 27,1 trln so'm (29,2%) ga o'sgan, ulush esa 22,2% dan 23,5% gacha ko'tarilgan. Bu aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan valyuta operatsiyalariga bo'lgan talabning ortishi, xorijiy iqtisodiy faoliyatning kengayishi va jahon bozoridagi valyutalarga bo'lgan qiziqishning yuqorilgini ko'rsatadi.

"Omonatlarni naqd pulda qaytarish" ko'rsatkichi 35,5 trln so'mdan 47,4 trln so'mgacha, ya'ni 11,9 trln so'm (33,5%) ga o'sgan, ulushi esa 8,5% dan 9,3% gacha oshgan. Bu holat aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchi ortayotganini, omonat operatsiyalarining faollashganini va ayrim hollarda mablag'larni naqd shaklda olishga ehtiyoj saqlanib qolganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, "Boshqa naqd puldagi to'lovlar" ham 2024 yilda 17,4 trln so'm (39,4%) ga oshgan bo'lib, ularning ulushi 10,6% dan 12,1% gacha ko'tarilgan. Bu yo'nalish

nafaqat maishiy va turli xizmat to'lovlarini, balki norasmiy pul aylanmalarini ham qamrab olish ehtimolini ko'rsatadi.

Ijtimoiy to'lovlar bo'yicha ma'lumotlarga ko'ra, "Pensiya, nafaqa va stipendiya to'lovlari" 2023 yildagi 22,1 trln so'mdan 17,8 trln so'mgacha kamaygan, ya'ni 4,3 trln so'm (-19,5%) pasaygan. Ushbu yo'nalishning ulushi ham 5,3% dan 3,5% gacha kamaygan. Bu davlat tomonidan ushbu to'lovlarning bank kartalari orqali amalga oshirilish darajasi oshganini, ya'ni naqd to'lovlardan elektron to'lov tizimlariga o'tish tendentsiyasini aks ettiradi.

"Korxona va tashkilotlarning ish haqi to'lovlari" bo'yicha chiqim ham 33,8 trln so'mdan 37,2 trln so'mgacha oshgan bo'lsa-da, uning ulushi 8,1% dan 7,3% gacha kamaygan. Bu xodimlarga maoshlarning asosan bank kartalari orqali to'lanishi tendentsiyasining kuchayganini anglatadi.

Umuman olganda, tahlil natijalari shundan dalolat beradiki, 2024 yilda naqd pul chiqimlarining o'sishi mamlakatdagi iqtisodiy faollikning ortishi, aholi va biznesning pul operatsiyalarida faol ishtirok etishi hamda valyuta bozorida harakatlanishning kuchayishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy to'lovlar va ish haqining naqd shakldagi ulushi qisqarayotgani pul muomalasini raqamlashtirish jarayoni izchil amalga oshirilayotganini tasdiqlaydi.

Kassa bo'linmalarining barchasi bank binosida maxsus jihozlangan hududda, kuchaytirilgan xavfsizlik choralari bilan ta'minlangan holda joylashadi. Bank kassa tarmog'i doirasida naqd pullarni qabul qilish, berish, saralash, qayta sanash va saqlash ishlari o'zaro uzviy bog'liq tarzda amalga oshiriladi.

Kassa bo'limining funksiyalari – naqd pulni qabul qilish va tarqatishdan tashqari, bankning likvidlik zaxiralarini joylashtirish, inkassatsiya qilingan qimmatliklarni qabul qilish, soxta kupyuralarni aniqlab zararsizlantirish, eskirgan banknotlarni almashtirish kabi jarayonlarni ham qamrab oladi. Shu sababli kassa bankning kundalik operatsiyalarida markaziy o'rin tutadi.

Tijorat banklarida kassa xizmatlarini tashkil etish va aholiga xizmat ko'rsatish yo'riqnoma talablariga muvofiq amalga oshirilganda, mijozlarga xizmat sifatini oshirish, pul aylanmasini nazorat qilish va bankning moliyaviy xavfsizligini ta'minlash mumkin. Binodan tashqari kassalar va bank xizmatlari markazlarida mijozlarga yaqinlik va qulaylik yaratadi, kassa xodimlari uchun esa operatsiyalarni samarali va xavfsiz bajarish imkonini ta'minlaydi.

Tijorat banklarda aholiga kassa xizmatlari Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda tashkil etilishi, bu xizmatlarning samarali, qulay va xavfsiz tarzda amalga oshirilishi bankning ishonchliligi va mijozlar qoniqishini ta'minlaydi. Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki: kassa tarmog'ini optimallashtirish, texnologiyalardan foydalanish, mijozlarga bag'ishlangan tarzda joylashuv va xizmat sifati muhimdir. O'zbekiston sharoitida bu yo'nalishdagi choralar — navbatlarni qisqartirish, binodan tashqari kassalar, elektron hujjatlar — alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda aholiga tijorat banklarida ko'rsatilayotgan kassa xizmatlari tijorat banklari faoliyatida hanuzgacha muhim o'rinda turibdi. Shu bilan birga, raqamlashtirish va to'lovlik madaniyati o'zgarmoqda. Tijorat banklari uchun kassa xizmatlarini

takomillashtirish texnik yangilanish, logistika optimallashtirish, mijozga yo'naltirilgan xizmat madaniyati va tarkibiy intizomlarning birlashgan jarayonidir.

2023–2024 yillarda tijorat banklarida naqd pul tushumlari 818 trln so'mdan 991,3 trln so'mga oshib, iqtisodiyotdagi pul aylanmasining kengayishini namoyon etdi. Shu bilan birga, jami naqd pul chiqimlari 417,4 trln so'mdan 509,6 trln so'mga ko'tarilib, aholining naqd pul operatsiyalariga bo'lgan talabining ortganini ko'rsatdi. Bank kartalari orqali naqd pul echish va elektron to'lovlar yo'nalishida yuqori darajadagi faoliyat kuzatilmoqda, bu esa pul muomalasini raqamlashtirish jarayonining izchilligini tasdiqlaydi.

Kassa bo'limi naqd pulni qabul qilish va tarqatishdan tashqari, bankning likvidligini boshqarish, inkassatsiya qilingan qimmatliklarni qabul qilish va xavfsizlikni ta'minlash kabi muhim funksiyalarni ham bajaradi. Shu bois, tijorat banklarida kassa xizmatlarini zamonaviy talablarga moslashtirish va optimallashtirish bankning ishonchliligi, mijozlar qoniqishi va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu holatlar asosida quyidagi takliflar ilgari surildi:

1. Tijorat banklarida kassa tarmog'ini optimallashtirish, navbatlarni qisqartirish va mijozlarga qulay xizmat ko'rsatish maqsadida binodan tashqari kassa punktlarini tashkil etish.
2. Elektron va mobil to'lov tizimlarini rivojlantirish orqali naqd pul operatsiyalarini kamaytirish va raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishni rag'batlantirish.
3. Kassa xodimlari uchun zamonaviy texnologiyalar asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish va operatsiyalarni xavfsiz, tezkor va aniqlik bilan bajarishni ta'minlash.
4. Banklarning likvidlik siyosatini takomillashtirish va naqd pul oqimlarini samarali boshqarish uchun kassa xizmatlarini markazlashtirilgan va boshqariladigan tizim asosida tashkil etish.
5. Pul aylanmasi va naqd pul operatsiyalarini doimiy monitoring qilish, xizmat sifatini baholash va takomillashtirish uchun axborot tizimlaridan keng foydalanish maqsalga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining «Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir» 3028-sonli yo'riqnoma. 2018 yil 28 aprel
2. Alberto Di Iorio, Anneke Kosse and Ismail Mustafi And so we pay: more digital and faster, with cash still in play March 2025
3. Frederic S. Mishkin, Stanley G. Eakins Financial markets and institutions Tenth Edition Global Edition Published by Pearson (August 29, 2023) © 2024
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Yillik hisoboti 2024
5. Umarov Z.A. Banklarda buxgalteriya hisobi (darslik). --T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», nashriyoti 2021, 612 b

Copyright © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

